

YANGI KONSTITUTSIYA KELAJAK POYDEVORI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10201130>

Eshqobilova Feruza Ikromjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro jurnalistika fakulteti 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yangi Konstitutsiya hamda uning ahamiyati, Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlar haqida so'zboradi.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya. Demokratik, milliy qadriyat, davlatchilik, inson manfaatlarini, suveren, adolat. Liberal.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining g'oyasi, maqsadi, ruhi - har bir qoidasi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, asrlar mobaynida shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek, bir necha ming yillardan buyon avlodlar avlodga meros bo'lib kelayotgan o'zbekona va sharqona davlatni idora etish hamda xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an'analari o'zida to'la mujassamlashtirgan. Prezidentimizning "Hamamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan - shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham - shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak - odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak - avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo'ladi. Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi"¹, degan fikrlari xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an'analari davom etayotganligining amaliy isbotidir. Yangi O'zbekiston Yangi Konstitutsiyasining qabul qilinishi milliy qadriyatlarimizni adolatli ijtimoiy jamiyat, inson qadir qimmatini va intellektual huquqlarini himoya qiladigan va qo'llab quvvatlaydigan jamiyat qurish yo'llarini belgilab beradi.

Yangilangan Konstitutsiya mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamdir. Konstitutsiyada O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat'iy belgilab qo'yildi.

Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylanishi qat'iy talab sifatida belgildi. Bu hol davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsatishiga asos bo'ladi. Binobarin, qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo'lishi shart va zarur. Bunga ko'ra, inson va davlat o'rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdaginoaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etiladi.

Konstitutsiyada kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo'yicha normalar belgilandi.

Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo'lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o'z boshpanasiga ega bo'lishini ta'minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi.

Bundan tashqari, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'zni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta'minlanishi kafolatlandi. Aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zaruriy sharti sifatida Konstitutsiyada atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha kompleks choralar belgilandi. Shu munosabat bilan, davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha choralarni amalga oshiradi, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, degan norma belgilandi. Shaharlarning bosh rejalarini jamoatchilik muhokamasidan majburiy o'tkazilishi shartligi qayd etildi.

Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga egaligi belgilandi. Ta'lim olish huquqi va imkoniyati kengaytiriladi, o'qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ladi. Jumladan, fuqarolarning oliy ta'lim muassasalarida davlat granti hisobidan o'qish huquqi qat'iy belgilab qo'yildi. Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlang'ich kasb-hunarga o'qitilishi ham belgilandi. Konstitutsiyada davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyati qayd etildi. Oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi taqdim etildi.

O'zbekistonning tadrijiy rivojlanishidan kelib chiqib hayotiy zaruriyatga aylandi. Millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun o'ta muhim bo'lgan adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadam bo'lmoqda. 30-apreldagi referendumda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonuni 1-maydan kuchga kirdi. Bunga 30 aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo'ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Shuningdek, boshqa qonunlar va qonunosti hujjatlarida keltirilgan normalar konstitutsiyaga zid bo'lsa, sudlar konstitutsiyaga qarab qaror qabul qiladi.

Bugunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi.

Ta'kidlanganidek, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan konstitutsiyaviy normalarning ijrosini so'zsiz ta'minlash barcha sohalarda "inson qadri"ning tom ma'noda yuksalishiga, davlat va jamiyat hayotini "inson – jamiyat – davlat"

degan tizimga asoslangan yangi va zamonaviy tarzda boshqarish imkonini beradi. Shu boisdan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya ijrosini to'liq ta'minlash barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasidir. Shu maqsadda belgilangan chora-tadbirlar dasturiga ko'ra, davlat fuqarolik xizmati hamda sud-huquq tizimi xodimlarining yangi konstitutsiyaviy talablarga rioya etish borasidagi bilim va malakasini oshirish uchun dastur tashkil qilindi. Maqsad – boshqaruvda konstitutsiyaviy normalarning ijrosini to'liq ta'minlash, ularni davlat xizmatchisining har kunlik faoliyatiga tatbiq etish, pirovardida "inson qadri" tamoyili asosida xalqqa xizmat ko'rsatishning sifat darajasini oshirishga erishish.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, bugungi, har tamonlama rivojlanib borayotgan dunyoda, yetakchi va ilg'or mamlakatlar qatoridan o'z o'rniga ega bo'lish uchun zamon ruhi bilan hamnafas bo'lgan, har jabhada mukammal, ijtimoiy davlat qurishga asoslangan, oddiy xalq vakillarining muammolarini yechishga qodir bo'la oladigan qonun tizimi bo'lmog'i zarur. Xuddi mana shunday yuqorida ta'kidlaganlarimizni umumlashtirgan holda, bugungi zamon ruhiga mos bo'lgan O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining yangilangan tahriri o'zbek xalqi tomonidan referendumda tasdiqlandi. Yangilangan konstitutsiyamizda xalqimiz uchun bir qancha yengilliklar yaratildi. Inson qadr-qimmati yuqori o'ringa ko'tarildi. Shuningdek asrlar mobaynida sharfli kasb hisoblanib kelgan - o'qituvchilarning huquqlari yangilangan qomusimizda belgilab qo'yildi. Yillar mobaynida majburiy mexnatga jalb qilingan, o'z kasbi bo'lmish barkamol avlodni yetishtirish qolib dalada paxta tergan o'qituvchilarning qadr - qimmati adolatli tarzda o'z o'rniga qo'yildi. Shu jumladan yangilangan qomusimizda inson ilmiy salohiyatli, o'z aqliy mehnat mahsulini himoyalay olish huquqiga ham ega bo'ldi. Qisqa qilib shuni ayta olamiz-ki, yangilangan konstitutsiyamiz muhtaram prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev aytganlaridek "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyilga asoslangan ijtimoiy davlat qurishning asosiy kalit bo'lib xizmat qiladi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yilning 14-dekabrida Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisi
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80. b.
3. Konstitutsiya – xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsuli ilmiy maqola.
4. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.Uz>
5. 2022 –2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.Uz>